

**Oldi-sotdi shartnomasini tuzish uchun
OMMAVIY OFERTA
(muddatli to'lov sharti bilan)**

Toshkent sh.

Mazkur hujjat Direktor Saydaliyev Saydali Xasanovich (matnda keyingi o'rinlarda – Sotuvchi) tomonidan taqdim qilingan “PRIME ONLINE TECHNOLOGY” MCHJning O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367- va 369-moddalariga muvofiq yuridik shaxslarga, yakka tartibdagi tadbirkorlarga, o'zini o'zi band qilgan shaxslarga (matnda keyingi o'rinlarda – Xaridor) Tovar oldi-sotdi shartnomasini tuzish to'g'risida yo'llangan Ofertasi hisoblanadi. Sotuvchi faoliyati davomida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi qoidalariga amal qiladi.

“PRIME ONLINE TECHNOLOGY” MCHJ www.smartpos.uz va/yoki www.uzkassa.uz Saytida joylashtirilgan ushbu Oferta matni bilan diqqat bilan tanishib chiqishni va Ofertaning biron-bir bandidan norozi bo'lgan taqdirda, ushbu Ofertani qabul qilish va Shartnoma Akseptidan voz kechishni taklif qiladi. Ushbu Shartnoma Xaridor tomonidan qabul qilingan paytdan e'tiboran tuzilgan deb hisoblanadi.

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu Ofertada, agar uning mazmunidan o'zgacha ma'no kelib chiqmasa, quyida keltirilgan atamalar quyidagi ma'nolarga ega bo'ladi va uning ajralmas qismi hisoblanadi:

Oferta – Tovarining oldi-sotdi shartnomasini (matnda keyingi o'rinlarda – Shartnoma) Ofertada ko'rsatilgan shartlarda, shu jumladan uning barcha ilovalari doirasida tuzish to'g'risida Sotuvchining ommaviy taklifi hisoblanadigan mazkur hujjat.

Oldi-sotdi shartnomasi – Xaridor tomonidan ko'rsatilgan shartnomani tuzish to'g'risidagi taklif shartlari aksept qilinishi natijasida Xaridor va Sotuvchi tomonidan tuzilgan oldi-sotdi shartnomasi sanaladi (muddatli to'lov sharti bilan).

Sotuvchi – «PRIME ONLINE TECHNOLOGY» MCHJ (STIR 306866358, ro'yxatga olish manzili: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Bektemir tumani, Oltintopgan ko'chasi, 29-uy).

Xaridor – Sotuvchi bilan ushbu Ofertada ko'rsatilgan shartlarda Oldi-sotdi shartnomasini tuzgan yuridik shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor, o'zini o'zi band qilgan shaxs.

«Tomon» yoki «Tomonlar» – tegishli ravishda alohida yoki birgalikda tilga olinadigan Xaridor va Sotuvchi.

Aksept – Xaridor tomonidan Shartnoma shartlarining to'liq va so'zsiz qabul qilinishi. Sotuvchi tomonidan taklif etilgan Tovar qiymatining dastlabki to'lovi (birinchi to'lov) amalga oshirilishi aksept hisoblanadi.

Tovar – Qurilmalar to'plami: Onlayn A-Pay P10 NKM (Android POS TERMINAL P10) va Terminal - Android mini Pos Terminal (M1 (P12)).

2. SHARTNOMA MAVZUSI

2.1. Sotuvchi Xaridorga Tovarini mulk qilib topshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi, Xaridor esa Tovarini ushbu Shartnomada nazarda tutilgan tartibda va shartlarda qabul qilish va to'lash majburiyatini oladi. Tovar Xaridorga ushbu Shartnomada nazarda tutilgan tartibda Tovar uchun muddatli to'lov shartlari asosida beriladi.

2.2. Tovar Sotuvchiga mulk huquqi asosida tegishli bo'lib, uchinchi shaxslarning har qanday huquqlaridan xoli, garov bilan yuklanmagan, xatlov ostida emas.

2.3. Sotuvchi sotiladigan Tovarlarining yangi va ilgari foydalanilmaganligini kafolatlaydi.

3. SHARTNOMA TUZILGAN VAQT (OFERTANI AKSEPT QILISH)

3.1. Ushbu Shartnomaning matni ommaviy oferta (ushbu shartnomani tuzish taklifi) ekanligiga asoslanib, Xaridor Sotuvchi tomonidan taklif qilingan Tovarining qiymati uchun dastlabki to'lovni (birinchi badalni) amalga oshirish ushbu ommaviy ofertaning Aksepti (ushbu shartnomani tuzish taklifini qabul qilish) ekanligini tan oladi.

3.2. Dastlabki to'lovni (birinchi to'lov) amalga oshirish Xaridorning ushbu Oferta shartlarini hech qanday cheklovlarsiz, mustasnalarsiz, izohlarsiz yoki istisnalarsiz to'liq hajmda qabul qilishini (roziligini) anglatadi.

4. HISOB-KITOBLAR TARTIBI

4.1. Tovarining qiymati Sotuvchi tomonidan bir tomonlama so'zsiz tartibda belgilanadi va tovarning bitta birligi (To'plam) uchun 12 foizli QQSni qo'shgan holda 4 100 000 (to'rt million yuz ming) so'mni tashkil etadi.

4.2. Tovar uchun to'lov Xaridor tomonidan Pul mablag'larini Sotuvchining hisob raqamiga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda Xaridorning Shartnoma bo'yicha haq to'lash borasidagi majburiyatlari pul mablag'lari Sotuvchining hisob raqamiga kelib tushgan kundan boshlab bajarilgan hisoblanadi.

4.3. Tovar qiymatini to'lash Xaridor tomonidan bo'lib-bo'lib, har oyda tovarning bitta birligi uchun 512 500 (besh yuz o'n ikki ming besh yuz) so'mdan teng to'lovlar bilan amalga oshiriladi.

4.4. Xaridor Tovar qiymatini quyidagi jadvalga muvofiq to'laydi:

4.4.1. Birinchi to'lov - Tovarini qabul qilish-topshirish dalolatnomasi (Aksept) imzolangunga qadar;

- 4.4.2. Ikkinchi to'lov - Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi bo'yicha Tovar olingan paytdan boshlab bir kalendar oydan kechiktirmay;
- 4.4.3. Uchinchi to'lov - Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi bo'yicha Tovar olingan paytdan boshlab ikki kalendar oydan kechiktirmay;
- 4.4.4. To'rtinchi to'lov - Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi bo'yicha Tovar olingan paytdan boshlab uch kalendar oydan kechiktirmay;
- 4.4.5. Beshinchi to'lov - Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi bo'yicha Tovar olingan paytdan boshlab to'rt kalendar oydan kechiktirmay;
- 4.4.6. Oltinchi to'lov - Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi bo'yicha Tovar olingan paytdan boshlab besh kalendar oydan kechiktirmay;
- 4.4.7. Yettinchi to'lov - Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi bo'yicha Tovar olingan paytdan boshlab olti kalendar oydan kechiktirmay;
- 4.4.8. Sakkizinchi to'lov - Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi bo'yicha Tovar olingan paytdan boshlab yetti kalendar oydan kechiktirmay amalga oshiriladi.
- 4.5. Xaridor sotib olingan Tovar uchun qarzdorlikni istalgan vaqtda muddatidan oldin yoki qisman so'ndirish huquqiga ega.
- 4.6. Tovar uchun to'liq to'langan sana pul mablag'lari Sotuvchining hisob raqamiga 100% kelib tushgan sana hisoblanadi.
- 4.7. Xaridor tomonidan navbatdagi to'lovni to'lash muddati buzilgan yoki Xaridor tomonidan Shartnomaning har qanday shartlari buzilgan taqdirda, Sotuvchi Tovarining butun qiymatini muddatidan oldin to'liq to'lashni bir tomonlama tartibda talab qilish huquqiga ega. Bunday holda, Sotuvchi o'z xohishiga ko'ra Xaridorga Tovarining butun qiymatini muddatidan oldin to'lash to'g'risida talabnoma yuborishi yoki darhol sud organlariga murojaat qilishi mumkin.

5. TOVARNI XARIDORGA TOPSHIRISH TARTIBI

- 5.1. Sotuvchi Sotuvchining hisob raqamiga ushbu Shartnomaning 4.3-bandida nazarda tutilgan dastlabki to'lov (birinchi to'lov) kelib tushishi sharti bilan Xaridor tomonidan Tovar talab qilib olingan paytdan boshlab 3 (uch) ish kuni mobaynida Tovarni topshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.
- 5.2. Tovarni miqdori bo'yicha qabul qilib olish, shuningdek yaxlitligi, butligi va tashqi nuqsonlari bo'yicha tekshirib olish Xaridor tomonidan bevosita Tovarni berish paytida amalga oshiriladi va topshirish hujjati (qabul qilish-topshirish dalolatnomasi) ni imzolash yo'li bilan tasdiqlanadi. Xaridor Tovarni qabul qilib olish paytida tovarning butligi buzilganligini, nuqsoni borligini yoki but emasligini aniqlanganda, buni topshirish hujjatida qayd etishi shart. Xaridor tomonidan Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi e'tirozlarsiz imzolanganda, Tovar zarur miqdorda, tegishli sifatda yetkazib berilgan deb hisoblanadi va Tovar namunasi olingandan keyin uning butunligi, butligi va tashqi nuqsonlari bo'yicha da'volar qabul qilinmaydi.
- 5.3. Tovarni topshirish tovarni o'zi olib ketish shartlari asosida amalga oshiriladi. Tovarni yuklab jo'natish shanba, yakshanba va bayram kunlaridan tashqari ish kunlarida soat 10 dan 17 gacha amalga oshiriladi.
- 5.4. Tovarni berish Xaridor tomonidan tegishli tarzda rasmiylashtirilgan ishonchnoma taqdim qilingan, shuningdek oluvchining shaxsini tasdiqlovchi pasport taqdim etilgan taqdirdagina amalga oshiriladi. To'ldirish uchun belgilangan tartib buzilgan holda berilgan ishonchnoma taqdim etilganda, tuzatishlar, o'zgartirishlar va bulg'angan yozuvlar kiritilgan ishonchnoma taqdim etilganda, ishonchnomaning amal qilish muddati tugagan taqdirda, shuningdek nomiga ishonchnoma berilgan tovarni oluvchining pasporti (pasport nusxasi) taqdim etilmagan taqdirda, Shartnoma bo'yicha Tovar berish amalga oshirilmaydi.
- 5.5. Ushbu Shartnomaga muvofiq, tovarni "o'zi olib ketish" asosida berish nazarda tutilganligini hisobga olgan holda, Xaridor Tovarni Sotuvchidan mustaqil ravishda talab qilib olish uchun to'liq javobgar bo'ladi.
- 5.6. Xaridorga berilgan Tovarga bo'lgan mulk huquqi Tovar topshirilgan paytdan e'tiboran unga o'tadi. Tovarining tasodifan nobud bo'lishi yoki tasodifan shikastlanishi xavfi Tovar Tovar joylashgan manzilda haqiqatda Xaridorga topshirilgan paytdan boshlab Xaridor zimmasiga o'tadi.
- 5.7. Tovarining to'liq qiymati to'langunga qadar Xaridor o'z mulkini begonalashtirishga (sotishga, hadya qilishga, garovga qo'yishga, to'liq yoki qisman almashtirishga), o'zgartirishlar kiritishga, Tovarlarining yaxlitligi va to'plamini o'zgartirishga yoki biron bir boshqa yo'l bilan Tovarni tasarruf etishga haqli emas.

6. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 6.1. Sotuvchining majburiyatlari quyidagilardan iborat:
- 6.1.1. ushbu Shartnomaga muvofiq qabul qilingan majburiyatlarni o'z vaqtida va lozim darajada bajarish;
- 6.1.2. ushbu Shartnomaga va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni bajarish;
- 6.2. Xaridorning majburiyatlari quyidagilardan iborat:
- 6.2.1. birinchi to'lov amalga oshirilgunga qadar ushbu Ofertaning mazmuni va unda belgilangan shartlar bilan tanishib chiqishi;
- 6.2.2. ushbu Shartnomani tuzish va ijro etish uchun zarur bo'lgan ishonchli ma'lumotlar, dalillar va hujjatlarning Sotuvchiga taqdim etilishini ta'minlash;
- 6.2.3. Tovarni Sotuvchidan talab qilib olish uchun dastlabki to'lov amalga oshirilgan paytdan boshlab 3 (uch) ish kuni mobaynida Sotuvchiga mustaqil ravishda murojaat qilish. Bunda Xaridor ko'rsatilgan muddatlarda Tovarni talab qilib

olish uchun Sotuvchiga murojaat qilmagan taqdirda, Sotuvchi Tovarni o'z vaqtida yetkazib bermaganlik uchun hech qanday javobgar emasligiga to'liq rozilik bildiradi;

6.2.4. Tovarni miqdoriga qarab qabul qilib olish. Tovarni qabul qilib olish paytida, uni vizual tarzda ko'zdan kechirishni va Tovarining ishlash qobiliyatining umumiy tekshiruvini amalga oshirish va kamchiliklar aniqlangan taqdirda, buni Qabul qilish-topshirish dalolatnomasida aks ettirish;

6.2.5. Ushbu Shartnomada o'rnatilgan tartibda va muddatlarda Tovarga haq to'lash;

6.2.6. Xaridorda ushbu Shartnoma bo'yicha Sotuvchi oldida qarzdorlik yuzaga kelgan taqdirda, Xaridor Sotuvchiga va Sug'urtachiga Xaridorning istalgan bank hisobvaraqlaridan, bank kartalaridan pul mablag'larini akseptsiz yechib olish huquqini beradi;

6.2.7. Tovar topshirilgan paytdan boshlab va uning haqi to'liq to'langunga qadar, Tovarining but saqlanishini ta'minlash, Tovarining qiymati kamayishiga yoki uning nobud bo'lishiga olib keladigan xatti-harakatlarni sodir etmaslik;

6.3. Sotuvchi quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:

6.3.1. agar Xaridor Shartnomani buzgan holda Tovarni qabul qilish yoki to'lashdan bosh tortsa, Tovar uchun to'liq haq to'lanishini talab qilish;

6.3.2. Xaridor tomonidan Tovar uchun haq to'lash majburiyati buzilgan taqdirda Xaridorning qarzi summasini Xaridorning istalgan bankda ochilgan istalgan hisobvarag'idan akseptsiz yechib olish;

6.3.3. quyidagi holatlar yuzaga kelganida, Tovarining to'liq qiymatini muddatidan oldin to'lashni talab qilish:

6.3.3.1. Xaridor tomonidan keyingi to'lovni to'lash muddati buzilganda;

6.3.3.2. Sotuvchining talabiga ko'ra hujjatlar va ma'lumotlar Xaridor tomonidan taqdim etilmaganda;

6.3.3.3. Xaridor tomonidan taqdim etilgan hujjatlarning haqiqiy emasligi faktlari aniqlanganda;

6.3.3.4. Xaridor tomonidan Shartnomaning har qanday sharti buzilishi;

6.3.3.5. Xaridorning moliyaviy ahvoli yomonlashganda;

6.3.4. Xaridor bilan amalga oshiriladigan telefon so'zlashuvlarini yozib olish;

6.3.5. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga va ushbu Shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lish.

6.4. Xaridor quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:

6.4.1. agar Sotuvchi Tovarni Xaridorga topshirishdan bosh tortsa, Shartnomani bajarishdan bosh tortish.

7. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

7.1. Tomonlar Shartnoma bo'yicha zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun ushbu Shartnomaga muvofiq, Shartnomada nazarda tutilmagan hollarda esa – O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javob beradilar.

7.2. Xaridor taqdim etilgan ma'lumotlarning mazmuni va ishonchiligi uchun mustaqil ravishda javobgar bo'ladi.

7.3. Sotuvchi Shartnoma bo'yicha sotib olingan Tovardan lozim darajada foydalanmaganligi oqibatida Xaridorga yetkazilgan ziyon uchun javobgar bo'lmaydi.

7.4. Agar Xaridorning tovar xususiyatlari haqidagi umidlari o'zini oqlamasa, Sotuvchi javobgar bo'lmaydi.

7.5. Sotuvchi Xaridorning uchinchi shaxslar oldidagi majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydi.

7.6. Xaridor Tovarni olishni talab qilmagan va/yoki qabul qilishdan bosh tortgan taqdirda, Xaridor o'z zimmasiga Sotuvchiga Tovar uchun belgilangan to'liq qiymatning 22 foizi (yigirma ikki) miqdorida jarima to'lash majburiyatini oladi.

7.7. Xaridor ushbu Shartnomada nazarda tutilgan har bir to'lovni o'z vaqtida to'lamagan taqdirda, Xaridor o'z zimmasiga Sotuvchiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun muddati o'tkazib yuborilgan to'lov summasining 0,4 foizi, lekin muddati o'tkazib yuborilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'lash majburiyatini oladi. Penya to'lash Xaridorni Shartnoma bo'yicha qarz summasini to'lashdan ozod qilmaydi.

7.8. Tovar uchun belgilangan qiymatni to'lashning ushbu Shartnomaning 4.4-bandida belgilangan muddatlari muddati o'tgan qarzdorlik yuzaga kelgan sanadan boshlab 1 (bir) kalendar kundan ortiq muddat davomida buzilgan taqdirda, Sotuvchi tovarlarning to'liq qiymatini muddatidan oldin to'lashni va etkazilgan zararni to'lashni talab qilishga, shuningdek istalgan vaqtda kelishmovchilikda bunday qarzni yozish huquqiga ega.

7.9. Sotuvchi Xaridor o'z huquqlarini suiiste'mol qilishi sifatida baholanadigan xatti-harakat – Tovarni olishdan muntazam ravishda bosh tortgan taqdirda, Shartnomani tuzishni rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi;

7.10. Tomonlardan biri ushbu Shartnoma bo'yicha zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, jabrlangan Tomon aybdor Tomondan o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarishni, shuningdek unga yetkazilgan zararni neustoykadan tashqari to'liq summada qoplashni talab qilish huquqiga ega.

8. YENGIB BO'LMAS KUCH HOLATLARI (FORS-MAJOR)

8.1. Tomonlar Shartnomaning bir qismini yoki uni to'liq bajarmaganliklari uchun, agar bunday bajarmaslik yengib bo'lmaydigan kuch holatlari tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinadilar. Yengib bo'lmaz kuch holatlariga quyidagilar kiradi: suv toshqini, tabiiy yong'in, zilzila, portlash, epidemiya va tabiat kuchlarining boshqacha ko'rinishlari, shuningdek urush, harbiy harakatlar yoki ushbu Shartnomani bajarishning imkonsizligiga olib kelgan boshqa harakatlar.

8.2. Tomonlardan birortasiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadigan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga yoki me'yoriy hujjatlariga kiritilgan o'zgartirishlar fors-major holatlari sifatida ko'rib chiqilmaydi, biroq,

Tomonning Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlaridan birortasini bajarishiga imkon bermaydigan o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda, Tomonlar ushbu muammoni bartaraf etish bo'yicha ishlarni amalga oshirish tartibiga nisbatan darhol qaror qabul qilishlari shart.

8.3. Fors-major holatlari oqibatida ushbu Shartnoma bo'yicha zimmasiga olingan majburiyatlarini bajarishi imkonsiz bo'lib qolgan tomon 10 (o'n) kalendar kun ichida O'zbekiston Respublikasining vakolatli organi tomonidan berilgan hujjatni isbot sifatida taqdim etishi kerak.

8.4. Agar yengib bo'lmas kuch holatlari ikki oydan ortiq vaqt mobaynida davom etsa, Tomonlar ushbu Shartnomaning keyingi yuridik taqdirini birgalikda belgilaydilar.

9. NIZOLARNI HAL ETISH

9.1. Ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan barcha munozarali masalalar muzokaralar o'tkazish va yozma da'vo yuborish yo'li bilan hal etilishi lozim. Da'voni olgan Tomon da'voni olgan paytdan e'tiboran 5 (besh) ish kuni ichida unga javob qaytarishi shart. Da'vo, agar u Tomonlarning rekvizitlari bo'yicha yuborilgan bo'lsa, yoki u shaxsan qo'lga topshirilgan bo'lsa, va/yoki telefaks orqali yuborilgan bo'lsa, buyurtma xat va/yoki kuryerlik xizmati orqali yuborilgan bo'lsa, va/yoki elektron pochtaga yuborilgan bo'lsa, va/yoki Didox.uz servisinde va O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yurituvchi boshqa elektron hujjat aylanish servislari qo'yilgan bo'lsa, tegishli tarzda olingan, berilgan deb hisoblanadi.

9.2. Muzokaralar yo'li bilan kelishuvga erishilmagan taqdirda, ushbu Shartnoma bilan bog'liq holda yuzaga keladigan yoki uning buzilishi, bekor qilinishi, haqiqiy emasligi bilan bog'liq barcha nizolar, kelishmovchiliklar, talablar Toshkent tumanlararo xo'jalik sudida hal etilishi lozim (shartnoma bo'yicha sudlovga tegishlilik).

9.3. Agar ushbu Shartnomaning bir tomoni jismoniy shaxs bo'lsa, bu holda nizolar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 36-moddasiga muvofiq Sotuvchi ro'yxatdan o'tgan joydagi (yuridik manzili) Toshkent shahar tumanlararo fuqarolik sudida hal etilishi lozim.

9.4. Shartnomani ijro etish joyi Sotuvchining joylashgan manzili (yuridik manzili) hisoblanadi.

10. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

10.1. Ushbu Shartnoma ushbu Oferta Aksept qilingan (qabul qilingan) paytdan boshlab kuchga kiradi va barcha Tomonlar ushbu Shartnomaga muvofiq o'z majburiyatlarini, shu jumladan, neustoykani to'lash bo'yicha majburiyatlarni bajargan paytdan boshlab o'z kuchini to'xtatadi.

10.2. Xaridor tomonidan ushbu Ofertaning Aksepti Xaridor tomonidan ushbu Shartnoma shartlarining hech qanday istisnalarsiz yoki cheklovlarsiz to'liq va so'zsiz qabul qilinishini anglatadi va ikki tomonlama yozma Shartnoma tuzish bilan teng kuchga ega sanaladi.

10.3. Xaridor ushbu Ofertaning yangi tahrirdagi matnini Saytga joylashtirish orqali Xaridorni va boshqa shaxslarni xabardor qilgan holda, Sotuvchi istalgan vaqtda ushbu Shartnoma shartlariga o'zgartirishlar kiritishga haqli ekanligiga rozilik bildiradi. O'zgartirishlar Xaridorlar va uchinchi shaxslar uchun yangi tahrirdagi Oferta matni Saytda joylashtirilgan sanadan yoki Ofertada ko'rsatilgan sanadan boshlab kuchga kiradi.

11. BOSHQA SHARTLAR

11.1. Xaridor ushbu Shartnoma doirasida unga tegishli bo'lgan huquq va majburiyatlarni Sotuvchining yozma roziligisiz boshqa shaxslarga topshirishga haqli emas. Sotuvchi esa, o'z navbatida, ushbu Shartnoma doirasida unga tegishli bo'lgan huquq va majburiyatlarni Xaridorning roziligisiz boshqa shaxslarga topshirishga, sotishga, berib yuborishga haqlidir.

11.2. Tomonlar ushbu band bilan bir-birlariga quyidagilarni va'da qiladilar:

11.2.1. Shartnomani tuzayotgan shaxs Shartnoma tuzilgan sanaga qadar amalda bo'lgan ustav/ishonchnoma bilan belgilangan vakolatlari doirasida harakat qiladi;

11.2.2. Tomonlar Shartnoma bo'yicha zimmalariga olingan majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq (lozim darajada) bajarish uchun yetarlicha moliyaviy imkoniyatlarga egadirlar va Shartnomaning amal qilish muddati davomida shunday bo'ladilar;

11.2.3. tomonlar qayta tashkil etish yoki tugatish jarayonida emasdirlar;

11.2.4. Tomonlarga nisbatan bankrotlik tartib-taomillari qo'zg'atilmagan va amalga oshirilayotgani yo'q;

Tomonlarning ishontirishlari muhim ahamiyatga ega, chunki Tomonlar Shartnomani ushbu Shartnomada ko'rsatilgan shartlarda, bir-birlarining ishontirishlarini hisobga olgan holda tuzish to'g'risida qaror qabul qilganlar va agar yuqorida ko'rsatilgan ishontirishlarning noto'g'riligi to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lganlarida, Shartnomani tuzmagan yoki uni boshqa shartlar asosida tuzgan bo'lardilar.

11.3. Shartnomani unda keltirilgan shartlarga ko'ra tuzish orqali, Xaridor oldi-sotdi shartnomasini bajarishda va uning to'g'riligi, to'liqligi va ishonchligi uchun barcha mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan holda, ishonchli shaxsiy ma'lumotlarning taqdim etilishini kafolatlaydi;

11.4. Shartnomani unda keltirilgan shartlarga ko'ra tuzish orqali, Xaridor o'zining shartsiz roziligini beradi va Sotuvchiga, sug'urtalovchiga va sotuvchining kontragentlariga Xaridorning shaxsiy ma'lumotlarini, shu jumladan, avtomatlashtirilgan ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlaridan va boshqa dasturiy ta'minotdan foydalangan holda to'plash, qayta ishlash va saqlashga ruxsat beradi. Shuningdek, Xaridor o'zining shaxsiy ma'lumotlari Sug'urtalovchiga va uchinchi shaxslarga berilishi mumkinligiga rozilik bildiradi. Xaridor Sotuvchi, Sug'urtalovchi, Sotuvchining kontragenti tomonidan shaxsiy ma'lumotlarning qayta ishlanishi quyidagilarning amalga oshirilishi mumkinligiga rozilik bildiradi: tovarlarni sug'urtalash maqsadida, auditorlik kompaniyalariga, nazorat qiluvchi organlarga ma'lumotlarning taqdim etilishini ta'minlash, xavfsizlikni ta'minlash, firibgarlik faoliyatini aniqlash va / yoki oldini olish, daromadlarni legallashtirish va boshqa

jinoyatlar, marketing faoliyatini amalga oshirish, muddati o'tgan qarzlarni undirish maqsadida. Sug'urtalovchiga va uchinchi shaxslarga beriladigan ma'lumotlar, shu qatorda, quyidagilarni o'z ichiga oladi: Xaridorning identifikatsiya ma'lumotlari (shu jumladan: Xaridorning to'liq ism-sharifi, shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari, yuridik / faktik manzili, telefon raqami, elektron pochta manzili va boshqalar), joriy majburiyat miqdori, uning maqsadi, jarima yozilganligi, Xaridor tomonidan moliyaviy majburiyatlar bo'yicha amalga oshirilgan to'lovlarning haqiqiyliigi va o'z vaqtida bajarilishi, qarzдорlik qoldig'i, sud qarorlari va shu zahoti ijro etish hujjatlari. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash uchun Xaridor tomonidan berilgan rozilik muddatsiz hisoblanib, u Sotuvchining yuridik manziliga yozma so'rov yuborish orqali qaytarib olinishi mumkin.

11.5. Shartnomani unda keltirilgan shartlarga ko'ra tuzish orqali, Xaridor sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta tovonini to'lagan Sug'urtalovchiga, Sotuvchining sug'urta natijasida qoplangan zararlar uchun javobgar bo'lgan Xaridorga nisbatan ega bo'lgan talab qilish (regress) huquqi, to'langan summa doirasida o'tishiga o'zining shartsiz roziligini beradi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 957-moddasi tartibida).

11.6. Shartnomani unda keltirilgan shartlarga ko'ra tuzish orqali, Xaridor Sug'urtalovchiga o'z pul mablag'larini O'zbekiston Respublikasining istalgan bankining hisob raqamlari va kartalaridan qabul qilinmagan va shubhasiz tartibda sug'urta qoplamasi summasi to'liq qaytarilgunga qadar hisobdan chiqarishga shartsiz rozilik beradi.

11.7. Ushbu Shartnomani tuzish orqali Xaridor Sotuvchiga ovozli qo'ng'iroqlar qilish va suhbatni yozib olish huquqini beradi, shuningdek, Sotuvchidan hamda Sotuvchi vakolat bergan boshqa shaxslardan turli usullar orqali yuboriladigan tarqatma xabarlar, SMS-xabarlar va boshqa xabarnomalarni (jumladan, qarzдорlik mavjudligi to'g'risidagi axborotni) olishga rozilik bildiradi.

11.8. Agar Shartnomaning biror qoidasi yoki sharti haqqoniy emas deb topilsa, bu holat Shartnomaning qolgan shartlari va qoidalari hamda umuman Shartnomaning o'zi haqqoniy emas deb topilishiga olib kelmaydi.

11.9. Tomonlar raqamli shaklda tuzilgan hujjatlar Xaridor tomonidan imzolangan bosma hujjatlar bilan bir xil yuridik kuchga ega ekanligi borasida kelishib oladilar.

11.10. Xaridor tegishli o'zgarishlar sodir bo'lgan paytdan boshlab 2 (ikki) kalendar kun ichida o'zining bank rekvizitlari o'zgargani hamda ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan har qanday holatlar to'g'risida Sotuvchini yozma ravishda xabardor qilishi shart. Sotuvchi o'z bank rekvizitlarining o'zgargani haqida Xaridorni veb saytda tegishli ma'lumotlarni e'lon qilish va Shartnomaga o'zgartirishlar kiritish orqali xabardor etadi. Xaridor Internetda ochiq tarzda joylashtirilgan ushbu Shartnoma (Oferta) shartlariga Sotuvchi tomonidan kiritiladigan dolzarb o'zgarishlarni mustaqil ravishda va o'z vaqtida kuzatib borishi lozim. Bunday nazoratning yo'qligi Xaridorni o'z majburiyatlarini bajarmaganlik (lozim darajada bajarmaganlik) uchun javobgarlikdan ozod etmaydi..

11.11. Shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha masalalarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga amal qiladilar.

SOTUVCHINING MANZILI VA REKVIZITLARI

“PRIME ONLINE TECHNOLOGY” MCHJ

Manzil: 100089, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri,

Bektemir tumani, Oltintopgan ko'chasi, 29-uy

STIR: 306 866 358

IFUT: 46690

h/r: 2020 8000 4051 4368 5001

«KAPITAL BANK» ATB

FAA: 01088

Bank STIRi: 207 127 843